

SHAXS BIBLIOGRAFIYASINI TARIXI VA TARAQQIYOTI, TUZISH USLUBIYATI

Malika Matmuradova Isayevna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

“Kutubxona – axborot faoliyati ” kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxs ko'rsatkichlarning dastlabki shakllanish jarayonlari va yuzaga kelishi, shaxs bibliografik ko'rsatkichlarning tuzish uslubi, har bir bosqichda amalga oshiriladigan ishlarning bajarilishi haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, adabiyotshunos, bibliografik ko'rsatkich, yordamchi apparat, vaqtli matbuot, prospect-rejasini, annotatsiya, tavsiya

Abstract: This article provides information on the initial formation processes and emergence of personal indicators, the methodology for compiling personal bibliographic indicators, and the work performed at each stage.

Keywords: person, literary critic, bibliographic indicator, auxiliary equipment, time press, prospect plan, annotation, recommendation

Shaxs bibliografiyasi ma'lum bir shaxsning asarlari va u haqida yozilgan asarlarni aks ettiradi.

Bibliografiya alohida bir tarmoq, faoliyat sohasi sifatida yuzaga kelibdiki, u dastlab bibliografiyaning shu turi shaklida mavjud bo'lgan. Eramizning 340-420 yillarida yashagan tilchi, faylasuf adabiyotshunos Iyeronim Stridoniskiy birinchi biobibliografiyani – “Cherkov yozuvchilari haqida kitob” ko'rsatkich (lug'at)ni tuzgan. Shuningdek, Gennadiy Marselskiy “Mashhur kishilar haqida kitob” ko'rsatkichini tuzgan. Isidor Sevilskiy ham “Cherkov yozuvchilari haqida kitob” ko'rsatkichini, yana XV asrda yashagan Ioann Trittengemskiy ham huddiy shunday nomdagi ko'rsatkichni tuzgan. Birinchi milliy bibliografik ko'rsatkich 1494 yilda tuzilgunga qadar bu bibliografik lug'atlar bibliografiyaning yagona turi bo'lgan.

Dastlabki, milliy bibliografik ko'rsatkichlar ham ko'pgina davlatlarda Germaniyada, Angliyada va boshqa mamlakatlarda mukammalroq ko'rinishlarda tuzilgan.

O'rta Osiyoda esa IX-X asrlarda O'rta Osiyoning yirik kutubxonalari o'z fondini fan sohalariga bo'lib joylashtirib, kitobxonlarga fondni ochib beruvchi katalog tuzib qo'yganligi haqida ma'lumotlar bor.

Beruniy Abu Bakir Muhammad Ibn Zakiriy Roziy ijodiga bag'ishlab “Bibliografiya” (ara tilida “Fixrist”) nomli ko'rsatkichi, “Yilnoma”. “Hindiston” asarlarida kitob ichi bibliografiyasining namunasi; Ibn Abdulloh Yoqutning “Ismlar

lugʻati va fanlar mazmuni”, As-Somoniyni “Ismlar geneologiyasi kitobi” Xoji Xalifaning XVII asrda “Kitob va fandagi shubhaning bartaraf etilishi”, Shayxur-raisi asarlari roʻyxati, Ibn Sino kitoblariga bibliografik koʻrsatkich, Kozi Ahmad Kumiyni “Hattotlar va musavvirlar haqida risola”, Alisher Navoiyni “Majolis -un - nafois”, “Hamsot ulmutaxair-yirin” asari, Hasan Hoja Nisoriyni “Muzakkiri axbob” kabi asarlarida shaxs bibliografik koʻrsatkichining mukammal namunasi berilgan.

XX asrga kelib, biobibliografiya asrning boshlarida boʻlmasada, keyinroq bibliografiyaning mustaqil turi sifatida rivojlandi, uslubiy jihatdan takomillashtirildi va u koʻp hollarda fanning rivojiga, maʼnaviy merosni oʻrganishga, yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladigan yordamchi manba boʻlib qoldi.

Biobibliografik koʻrsatkichlar fan, maorif, ishlab chiqarishda mashhur boʻlgan olimlar, jamoat va davlat arboblari, yozuvchilar va shoirlarga bagʻishlab tuziladi. Bunday bibliografiyalar bir tomondan, oʻsha shaxsning ijodini keng va chuqur oʻrganishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, adabiyotlar targʻibotida, olimlar yaratgan ilmiy asarlardan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotganlar ishini ham ancha yengillashtiradi.

Biobibliografik qoʻllanmalarining tuzilishi, bibliografik koʻrsatkichlarni tuzish uslubiyati asosan bir xil.

Yirik bibliografik koʻrsatkich va shaxs bibliografiyani tuzish 4 bosqichda amalga oshiriladi: tayyorlov, analitik, sintetik, yakunlovchi bosqichlar.

Shaxs bibliografik qoʻllanma tuzishning umumiy qoida va metodlariga asoslanadi.

Bibliografiyalashning tayyorlov bosqichi. Bu bosqich mavzu tanlash va uni oʻrganish, qoʻllanmaning prospek (rejasini)ni ishlab chiqish, adabiyotlarni aniqlashni oʻz ichiga oladi.

Shaxs bibliografisining prospect-rejasini tuzishdan boshlanadi. U quyidagi jarayonlarni oʻz ichiga oladi:

- a) aniq bir shaxsni tanlash va mavzuning bibliografik ishlanganlik darajasini aniqlash,
- b) koʻrsatkich uchun olinadigan mavzuning dolzarbligini baholash,
- v) kitobxonlar undan foydalana olishlarini oldindan koʻra bilish
- g) koʻrsatkich mavzusini shakllantirish,
- d) koʻrsatkichni tuzish uchun sarflanadigan vaqtni aniq belgilash,
- ye) qoʻllanmaning prospekt - rejasini tuzish,
- j) ish jarayonlarining ketma-ketligini belgilab olish,
- z) koʻrsatkichning maqsadi va kitobxonlik doirasini belgilash,
- i) qoʻllanmaning mazmunini belgilash,
- k) qoʻllanmaga material yigʻish,

l) ko'rsatkichga yig'iladigan materiallarni joylashtirish usullari va yo'llarini belgilash

l) ko'rsatkichni rasmiylashtirish yo'llarini belgilash (kitobxonlar doirasiga ko'ra).

tuzilgan ko'rsatkichga muharrirlik qilishi va u ko'rsatkichga taqriz yozishi bilan yakunlanadi. Bundan maqsad tuzilgan bibliografik qo'llanmalarning kamchiliklarini tuzatish va bartaraf etishdir.

Qo'llanma ustida ishlashning analitik (tahliliy) bosqichi birlamchi hujjatda mavjud bo'lgan axborotni kelgusi sintez qiluvchi bosqich uchun zarur bo'lgan materialga aylantirish maqsadida ishlashdan iboratdir. Analitik bosqich o'zaro uzviy bog'langan va bir vaqtda bajariladigan bir necha jarayonni o'z ichiga oladi. Ular:

- hujjatni umumiy bibliografik tahlil qilish,
- bibliografik tavsif tuzish,
- annotasiyalash va referatlash,
- indekslash va predmetlashtirish,
- bibliografik yozuvlarni tayyorlash.

Hujjatlarni umumiy bibliografik tahlil qilish davomida bibliograf hujjatning mazmuni va shakli bilan har tomonlama tanishib chiqadi: muallifning g'ofviy yo'nalishini (yo'lini) aniqlaydi, asarning asosiy va yaqin mavzusi, uning mantiqiy strukturasini (tuzilishi), ijtimoiy ahamiyati (ilmiy, g'oyaviy va madaniy), turlari, janri va metodik xususiyatlari, maqsadi va kitobxonlik doirasi, poligrafik bezatilishi sifatini o'rganadi, hujjatning qidirish belgilarini ajratadi, asarning tuzilayotgan qo'llanmaning g'oyaviy mazmuni va aniq mo'ljallanishiga muvofiqligi nuqtai-nazaridan unga baho beradi.

Tahlilning bosh maqsadi - boshqa tahliliy jarayonlar (tasvir, annotasiyalash, indekslash, predmetlash, bibliografik yozuvlarni shakllantirish) uchun zarur materialni tayyorlab berishdan iboratdir.

Tahlil uchun asosiy manba va vositalar: hujjatning o'zi, uni bevosita o'rganish, muallif va hujjatning mazmuni haqida boshqa (qo'shimcha) manbalar.

Hujjatning o'zini bibliografik tahlil qilish o'z ichiga: titul varag'i, nashr ma'lumotlari va annotasiyasi, so'z boshi yoki kirish so'zi, mundarijasi, izohlari, sharh (kommentariy) lari va zarur hollarda (yuqorida aytilgan manbalari kamlik qilganda) asar matnini oralatib o'qish bilan mantaqiy tanishib chiqishni oladi.

Boshqa guruh manbalari - tanqidiy maqolalar, taqrizlar, boshqa mualliflar asarlarida unga berilgan baholar, ilmiy muzokaralar materiallari, spravka nashrlari, nashriyotlar propektlari, ilgari nashr qilingan bibliografik qo'llanmalar ham zarur hollarda ko'riladi, olinadi.

Bibliografik tahlil qilinayotgan materiallarning tarkibi hujjat mavzusining murakkabligiga, tuzilayotgan qo'llanmaning turi va kitobxonlik doirasi, manbalar

soniga bog'liq bo'ladi.

Bibliografik qo'llanmalarda, ayniqsa, tavsiya ko'rsatkichlarida hujjatlarni mazmunini ochib berishning asosiy metodi annotatsiyalashdir.

Hujjatni tez, chuqur va har tomonlama umumiy bibliografik tahlil qilish - bibliografning muhim kasbiy sifatlari ko'lamiga bog'liqdir.

Bibliografik qo'llanmalarda, ayniqsa, tavsiya ko'rsatkichlarida hujjatlarni mazmunini ochib berishning asosiy metodi annotatsiyalashdir.

Annotatsiya- bu matbuot asarining, hujjatning mazmuni, mo'ljallanishi, shakli va boshqa belgilariga ko'ra qisqacha tavsifnomasidir.

Annotatsiyalarning hajmi, tuzilishi, mazmuni va mo'ljallanishi turlicha bo'lishi mumkin. Annotatsiyalar odatda 2 ta asosiy belgisiga ko'ra uslubiy klassifikasiyalanadi: 1) bajarayotgan vazifasi va mo'ljallanishiga, 2) annotatsiyalanayotgan materiallarni xarakteristiklash usuli bo'yicha.

Birinchi belgisi, ya'ni vazifasi va mo'ljallanishiga ko'ra annotatsiyalar spravka va tavsiya annotatsiyalarga bo'linadi.

Spravka annotatsiyasi asarning noaniq sarlavhasini aniqlaydi yoki muallif haqida, hujjatning shakli, janri, mazmuni, mo'ljallanishi va boshqa xususiyatlari haqida spravka maqsadida bibliografik tavsifda bo'lmagan qo'shimcha (ko'proq faktik) ma'lumotni beradi. Spravka annotatsiyalari imkoni boricha qisqacha bo'lishi zarur.

Tavsiya annotatsiyasi mazkur bibliografik qo'llanma mo'ljallangan kitobxonlar guruhining talablari, tayyorgarlik darajasi, yoshi va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda hujjatni tavsiflaydi va baholaydi.

Spravka va tavsiya annotatsiyalari o'rtasidagi mohiyatli funksional farq shuki, spravka annotatsiyai bibliografik axborotning qidirish va xabar berish vazifasini, tavsiya annotatsiyasi - baholash vazifasini amaliy qo'llash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi belgisi - bibliografiyalanayotgan materialni tavsiflash metodiga ko'ra esa annotatsiyalar umumiy, analitik va guruhli annotatsiyalarga bo'linadi.

Analitik annotatsiya hujjatning biror bir qismini mazmunan yoritib, bu annotatsiyalanayotgan asar qo'llanma mavzusiga to'laligicha emas, qisman taalluqli bo'lgandagina qo'llaniladi. Bu annotatsiyaning bosh vazifasi - asarning bu qo'llanma uchun yoki qo'llanmaning birorta bo'limi uchun muhim bo'lgan nima masalani va qayerda ko'tarishini aniq ko'rsatishdir. Analitik annotatsiyaning ham 2 turi mavjud: asar mazmunining ma'lum aspektini (tomonlarini) va asarning ma'lum qismini (bob, paragraf, alohida fikrlar) ajratib beruvchi annotatsiyalarga bo'linadi.

Har qanday bibliografik qo'llanma tuzishda yuqoridagi annotatsiya turlarining birini qo'llash zarur ekan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan bibliografiyalashning analitik (tahliliy) jarayonini bibliografik qo'llanmaning asosiy elementi - bibliografik yozuv birlashtiradi.

Shu sababli bibliografik yozuvlarni tuzish tahliliy bosqichdan sintetik bosqichga o'tish jarayoni hisoblanadi.

Demak, bu tavsifni biz yuqoridagi annotatsiyalarning bir turi bilan to'ldirishimiz zarur ekan.

Bibliografik yozuvlarni to'g'ri tuzish muhim ahamiyatga ega. Uning hamma belgilari (bibliografik tavsif, annotasiya yoki referat, klassifikasiya indeksi va h.k.lar) yangi satrdan boshlab joylashtiriladi (darvoqe, indeks belgisi va shifri bibliografik ko'rsatkich uchun u qadar ahamiyatga ega emas, shu sababli ham biz qo'llanma tuzishda bu ishlarni bajarmaymiz).

Sintetik (sintez qiluvchi-umumlashtiruvchi) bosqichda tahlil qilingan adabiyotlar ichidan tanlab olinadi, ya'ni tanlash jarayoni amalga oshiriladi; tanlab olingan hujjatlarning bibliografik yozuvlari joylashtiriladi, yordamchi ko'rsatkichlari tuziladi.

Materiallarni joylashtirish qo'llanmaning turiga, uning mavzu qo'yilayotgan adabiyotlarning mazmuni va xususiyatiga bog'liq.

Bir guruh arboblari (siyosiy arboblar, olimlar sayohatchilar, yozuvchilar va boshqalar) ga bag'ishlangan shaxs bibliografiyalarda ko'rsatkichlarida xronologik tartibda, biobibliografik lug'atlarda shaxs ruknlarining umumiy alifbosi bo'yicha joylashtirish qulaydir.

Shaxs bibliografiyasida mualliflarning familiyasi yozilmaydi nashrlar xronologik ketma-ketlikda joylashtirish qo'llaniladi. U haqidagi nashrlarda muallifning familiyast yoziladi, tuzuvchining mahoratiga bog'liq bo'lib, xronologik ketma-ketlikda alifbo tartibda qo'yiladi, yoki alifbo tartibda ketma-ketlikda joylashtirilish qo'llaniladi.

Shaxs bibliografiyasida (ayniqsa retrospektiv ilmiy yordamchi ko'rsatkichlarda) gazeta va jurnal materiallari ko'p kiritilishi natijasida materiallarini guruhlashda sarlavha bo'yicha qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Shaxs bibliografiyasida yordamchi ko'rsatkichlarning ham turli-tumanligi (mualliflar, ismlar, matbuot asarining sarlavhalari h.k.) ni belgilab beradi.

Yakunlash bosqichida esa qo'llanmaning ma'lumot-metodik apparatlarini tuzish, qo'llanmani rasmiylashtirish va unga muharrirlik qilish (tahrir qilish) ishlari amalga oshiriladi.

Bibliografiyalashning yakunlovchi bosqichida qo'llanma ma'lumot-metodik apparat bilan ta'minlanadi, u har qanday bibliografik asarning qidirish imkoniyatlarini kengaytiradi va foydalanish samaradorligini oshiradi.

Bu apparat tarkibiga: so'z boshi, kirish maqolasi, turli ilovalar, mundarija kiradi.

Ko'p qo'llanmalar so'z boshi bilan ochiladi. Unda mavzu asoslanadi, qo'llanmaning maqsadi va kitobxonlik doirasi ko'rsatiladi, materialni tanlash, joylashtirish va bibliografik tavsiflash uslubida, oxirgi bo'linmalar ichida bibliografik

yo'zuvlarning joylashish ketma-ketligi, qo'llanmada foydalanilgan annotatsiyalarning xillari tushuntiriladi.

Qo'llanma ustidagi ish uni tahrir qilish, rasmiylashtirish va bosmaga tayyorlash ishi bilan yakunlanadi.

Tahrirning uch turini: ilmiy, adabiy va bibliografik tahrir turlarini ajratish mumkin. Ilmiy muharrirlikka shu shaxsning hayoti va faoliyatini o'rganish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar jalb qilinadi, ular qo'llanmaning prospektga mos holda tuzilganligini, material tanlash, joylashtirish yo'llarini, annotatsiyalash metodlarini aniqlab beradilar, ma'lumot-metodik apparat tarkibini o'rganadilar.

Adabiy muharrirlikda esa qo'llanma matni (ayniqsa so'z boshi, kirish maqolasi, izohlari) diqqat bilan o'qib chiqiladi, undagi so'zlarning takrorlanishi, xatolar bartaraf etiladi.

Bibliografik muharrirlik esa qo'llanma tuzib bo'lingach qilinib, unda bibliografik tavsiflarning yagonaligi, ularning davlat standarti talablari asosida bajarilganligi, joylashtirilish ketma-ketligining to'g'riligi, asosiy matnga yordamchi ko'rsatkichlardan yo'naltirishlarning to'g'ri berilganligi kabilar tekshiriladi. Ayniqsa tavsiflarda hamda yordamchi izohlarda qisqartmalarning to'g'ri qo'llanilishiga jiddiy e'tibor berilishi zarur.

Tayyor bo'lgan shaxs bibliografiyasi muhokamadan so'ng nashrga topshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Библиографияшунослик: дарслик / И.Ж.Юлдошев, Т. Байтураев, Ғ.Нарзуллаев, Ҳ. Маматраимова. –Тошкент, 2022.–236 б.
2. Maxmudov, M.X. Umumiy bibliografiya: o'quv qo'llanma / M.X.Mahmudov, G.Ziyodullayeva.–Toshkent, Aloqachi,2020. –200 b
3. Матмурадова М.Бадий адабиётлар библиографияси: ўқув қўлланма/ М.Матмурадова.–Тошкент : А.Қодирий номидаги Тош. ДМИ босмахонаси,2008.– 58 б.
- 4.Matmuradova M.I. Bibliografiyashunoslik (Shaxs bibliografiyasi tuzish bo'yicha): o'quv-uslubiy qo'llanma/ M.I.Matmuradova. –Тошкент,2024. –64 б.